

**DAFN MAROSIMI ORQALI IBTIDOIY QARASHLAR: TESHIKTOSH
MISOLIDA****G‘ulomov Sharofiddinxon Zafarjon o‘g‘li***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand**davlat universiteti magistranti*[*sharofiddinxon123@gmail.com*](mailto:sharofiddinxon123@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur tezisda Teshiktosh g‘oridan topilgan neandertal tipiga mansub bola qabri asosida, O‘rta Osiyo hududidagi ibtidoiy davr odamlarining ilk dafn marosimlari hamda, diniy tasavvurlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qabrning tuzulishi, qanday holatda ekanligi, atrofidagi buyum va jismlarning ramziy va e‘tiqodiy mazmunlari yoritiladi. Shuningdek, ibtidoiy jamiyat odamlarining o‘limga bo‘lgan qarashlari, marosim va jasadga bo‘lgan hurmatlarini ilmiy jihatdan asoslanadi. Natijada O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan neandertal qabri orqali paleolit davridagi diniy qarashlarning ilk ko‘rinishlari mavjud bo‘lganligi ilgari suriladi.

Annotation: This thesis analyzes the early burial practices and religious beliefs of primitive people in Central Asia based on the grave of a Neanderthal child discovered in Teshik-Tash Cave. The study examines the structure of the burial, its condition, and the symbolic and ritual significance of the objects found around it. It also provides a scientific interpretation of primitive society’s attitudes toward death, as well as their respect for the deceased and burial rituals. As a result, it is argued that the only known Neanderthal burial in Central Asia demonstrates the existence of early forms of religious beliefs during the Paleolithic period.

Аннотация: В данном тезисе на основе захоронения ребёнка неандертальского типа, обнаруженного в Teshik-Tash пещера, анализируются ранние погребальные обряды и религиозные представления первобытных людей на территории Средней Азии. В ходе исследования рассматриваются структура захоронения, его состояние, а также символическое и культовое значение предметов и объектов, найденных вокруг. Кроме того, с научной точки зрения обосновываются взгляды первобытного общества на смерть, а также их отношение к обрядам и уважение к умершему. В результате выдвигается положение о том, что на основе единственного в Средней Азии неандертальского захоронения можно говорить о существовании ранних форм религиозных представлений в эпоху палеолита.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, paleolit, Teshittosh g‘ori, ma‘naviy dunyoqarash, e‘tiqod, qabr, neandertal bola, tog‘ echkisi shoxlari, dastlabki diniy qarash, marosim.

Keywords: *Central Asia, Paleolithic, Teshik-Tash Cave, spiritual worldview, belief, burial, Neanderthal child, mountain goat horns, early religious beliefs, ritual.*

Ключевые слова: *Средняя Азия, палеолит, Teshik-Tash Cave, духовное мировоззрение, вера, захоронение, неандертальский ребёнок, рога горного козла, ранние религиозные представления, обряд.*

Kirish. Paleolit davri insoniyat tarixidagi eng katta va haligacha o‘rganilishi davom ettirilayotgan davr hisoblanadi. Bu davr O‘rta Osiyo hududa ham keng miqyosida o‘rganilgan bo‘lib eng mashhuri bu Teshiktosh g‘or makoni hisoblanadi. Sababi Teshiktosh g‘oridan neandertal tipiga mansub odamning qabri topilgan. Neandertal odam qabrlari shu kunga qadar 6 ta hududdan: La Shapel-o-Sen, Regurdu g‘ori (Fransiya), Shanidar g‘ori (Iroq), Kebara, Amud g‘orlari (Isroil) Teshiktosh (O‘zbekiston) dan topilgan.

Teshiktosh g‘ori O‘rta Osiyodagi eng muhim paleolit yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Teshiktosh g‘ori ilk bor 1938-yilda sovet arxeologi A.P. Okladnikov boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan o‘rganilgan. Ushbu yodgorlik Surxondaryo viloyati, Boysun tog‘lari hududida joylashgan bo‘lib, u yerda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida neandertal bolaga tegishli qabr topilgan. Bu topilma nafaqat O‘rta Osiyo, balki jahon arxeologiyasi uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur topilma ibtidoiy odamlarning ma‘naviy dunyoqarashi, dafn marosimlari va e‘tiqodlari mavjud bo‘lganini ilmiy jihatdan asoslashga imkon berdi. Qazishmalar davomida bir necha madaniy qatlamlar aniqlangan bo‘lib, ular o‘rta paleolit davriga mansub ekanligi aniqlangan.

G‘orda topilgan mehnat qurollari asosan mustye madaniyatiga oid bo‘lib, toshdan yasalgan qirrali qurollar, keskichlar va uchli asboblardan iborat bo‘lib topilgan. Eng muhim topilma — 8–9 yoshli neandertal bolaga tegishli qabr hisoblanadi. Qabr g‘orning ichki qismida, maxsus chuqurchaga joylashtirilgan holda topilgan. Bola skeleti yonboshlab yotgan holatda aniqlangan bo‘lib, uning atrofida tog‘ echkisi (arxar) shoxlari aylana shaklida joylashtirilgan. Bu holat oddiy tasodif emas, balki marosimiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Teshiktosh qabri ibtidoiy dafn marosimlarining dastlabki ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanadi. Skeletning aniq joylashuvi, atrofidagi buyumlar va maxsus tayyorlangan joy uning ongli ravishda dafn etilganini ko‘rsatadi. Shoxlarning aylana shaklida qo‘yilishi marhumni himoya qilish yoki diniy ramz sifatida talqin qilinadi. Bu esa ibtidoiy e‘tiqodlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Mazkur topilma asosida olimlar neandertal odamlarida: ruhga ishonch, narigi dunyo tushunchasi, marosimiy dafn mavjud bo‘lgan degan xulosaga kelishgan. Bu esa inson tafakkurining rivojlanish darajasi ancha yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Teshiktosh qabri yuzasidan turli ilmiy qarashlar mavjud. Ba‘zi olimlar bu marosimni diniy deb hisoblasalar, boshqalar uni oddiy dafn deb talqin qilishadi. Shunga qaramay, ko‘pchilik

tadqiqotchilar bu topilmani ibtidoiy diniy tasavvurlar bilan bog‘laydi. Teshiktosh topilmasi Yevropa va Yaqin Sharqdagi neandertal qabrlari bilan qiyoslanadi. Bu esa neandertal odamlar turli hududlarda o‘xshash marosimlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. O‘rta Osiyo hududi ham qadimgi madaniyat markazlaridan biri ekanligi isbotlangan.

Xulosa qilgan holda shuni ta’kidlash joizki, bir vaqtning o‘zida yer yuzining turli joylarida yashagan neandertal odamlari o‘ziga xos ma’naviy dunyoqarash va e’tiqodga ega bo‘lgan. Teshiktosh g‘ori esa, O‘rta Osiyo hududida yashagan neandertallarning ma’naviy ongi qay darajada ekanligini ko‘rsatib beruvchi bebaho manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.М.Массон. *Вопросы археологии Средней Азии*. Ленинград: Наука, 1976.
2. А.П.Окладникову *Древние культуры Центральной Азии*. М: Наука, 1959.
3. A.Asqarov. *O‘zbek xalqining etnogenezi* T.: O‘zbekiston, 2007.
4. J.G. Clark. *World Prehistory*. – Cambridge, L.1961.